

SOBIRA JO'RAEVA

# YURT TILIM YURAK TILIM



Тошкент-2006

Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan  
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart

ilgarigi berilmalar miqdori \_\_\_\_\_

|  |  |
|--|--|
|  |  |
|--|--|

+

4.4  
2.85

SOBIRA JO'RAEVA

## YURT TILIM – YURAK TILIM

epiqyga va bora  
Sobira Jo'raeva  
muallif va nashr  
Sobira Jo'raeva  
amir, yigirgach va  
Shahar va  
yigirgach va  
Nashr ko'rsatish



TOSHKENT – 2006

250(4.4)

## KIRISH

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI TOSHKENT DAVLAT MADANIYAT INSTITUTI JO'RAEVA SOBIRA ESHQURBONOVNA

Uslubiy qo'llanma Davlat ta'lim standartlari talablari asosida tuzilgan. Bu barcha o'quv yurtlarida 'Tilshunoslik' fani bo'yicha o'tiladigan darslar jarayonida, til bayramlarini mazmunli o'tkazish uchun foydalanishga mo'ljallangan. Qo'llanmadagi ona tilimiz haqidagi she'rlardan, ulug' adiblarimizning til to'g'risidagi fikrlaridan, tavsiya qilingan scenariylardan barcha qizikuvchilar foydalanishlari mumkin.

**Muharrir** – filologiya fanlari nomzodi, dotsent Ravshan Jomonov

**Taqrizchilar:** filologiya fanlari doktori, professor Sobir Mirvaliev va Toshkent shahar pedagoglar malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti Tillar kafedrasini mudiri Feruza Muhamedova

Til – har bir xalq va millatning milliy o'zligini namoyon qilishda muhim vositadir. Ja'miki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi ona tilining betakror jozibasi bilan singadi... Ona tili – bu millatning ruhidir. O'z tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar! Shaxs ma'naviy kamolotining zarur shartlaridan biri o'z ona tilini bilishidir.

**I.A.Karimov**

Til millatning ulkan boyligi va bebaho mulkidir. U kishilik jamiyatida fikr almashish, aloqa-aralashuvlarning eng asosiy vositasidir. U yozma va og'zaki nutq jarayonida o'z ijtimoiy vazivasini bajaradi. O'zbek tili O'rtasi Osiyodagi eng qadimiy va boy tillardan biridir.

O'zbek tilining imkoniyatlari shu qadar kengki, bu tilda turli so'z tuzish, chiroyli so'zlash, asarlar yaratish mumkin. Bunga adabiyot va san'atimizning boy tarixi, xazinasi yorqin guvoh sanaladi.

Ona tilimizga bo'lgan e'tibor ancha yillar davomida sustlashib ketgan edi. XX asr boshlaridayoq millat taqdiri, ona tilimiz ravnaqi yo'lida fidoiylilik qilgan adib Fitrat shunday dardli so'zlarni bayon qilgan edi:

Dunyoning eng boy, eng baxtsiz bir tili qaysi tildir? Bilasizmi? Turkcha! Shoirlik qilmoqchi emasman so'zning to'g'risi shudir!

Dunyoning eng boy tili turkchadir, eng baxtsiz tili ham yana turkchadir. Bir tilning boyligi u tildagi so'zning ko'pligi, undirish kengligi bilan bo'lur. Bu kabi ta'rif o'zbek tilining o'ziga hosligini anglash bilan belgilanadi. Til mustaqillik belgisi va milliy g'urur ramzidir. O'zini hurmat qilgan har bir millat ona tilini ham e'zozlaydi, uni rivojlaniradi. O'zbek tilining 1989 yili 21 oktyabrdan davlatning rasmiy tili maqomiga ko'tarilishi yurtboshimizning uzoqni ko'ra bilishi va siyosiy jasorati samarasidir. O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqidagi qonunning 2 maddasida shunday deyilgan: 'O'zbek tili o'zbek xalqining ma'naviy mulkidir. O'zbekiston Respublikasi davlat tili ravnaqi, qo'llanishi va muhofazasini har tomonlama ta'minlashga oid barcha masalalar O'zbekiston Respublikasining huquqi doirasiga kiradi.

Istiqbolga erishganimizdan so'ng milliy qadriyatlarimiz qayta tiklandi. Shu bilan birga ona tilimizga bo'lgan e'tibor

ancha kuchaydi. Urf odatlarimiz, udumlarimiz, bayram va shodiyonalar keng nishonlana boshlandi. Adabiy me'rosimizning chuqur o'rganila boshlanishi xalqimizning asrlar osha orzu qilgan yutuqlaridandir. Axir qancha qancha adiblarimiz millatning ozodligi uchun, o'zbek tilining, ravnaqi uchun she'riy misralari bilan kurashgan edilar. Jumladan, so'z mulkining sultoni Hazrat Navoiy ona tilining rivojiga katta hissa qo'shgan holda fikrlarini she'riy misralarda aks ettirgan edi.

El netib topgay menikim  
Men o'zimni topmasam.

Ha, o'zlikni anglash, avvalo millatning ruhi bo'lgan o'z ona tilini e'zozlashdan boshlanadi. Shu o'rinda Abdulla Avloniyning ham quyidagi fikrlarni keltirib o'tishimiz mumkin: 'Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan, aynan hayotini ko'rsatadigan til va adabiyotdir. Milliy tilni yo'qotmoq, millatni yo'qotmoqdir'.

Yoki ulug' adibimiz Abdulla Qodiriy ham ona tilining sofligi uchun uning taqdiri uchun kurashdi. 'O'zbek tili kambag'al emas, balki o'zbek tilini kambag'al deguvchilarning o'zi kambag'al. Ular o'z nodonliklarini o'zbek tiliga to'nkamasinlar'.

Ona tilimizga bo'lgan muhabbat hozirgi kun adabiyoti darg'alari ijodida yanada yorqinroq aks etmoqda. Masalan, Muhammad Yusufning "Ona tilim" deb nomlanadigan she'ridan bir parchasini keltirsak:

Bir qarasam har shevanga ming jilolar  
Har novdangda, har mevanga ming jilolar  
Qodiriy, Cho'lponlaru, Abdullolar  
Sening qaytgan kuning mening tug'ilgan kunim  
Ona tilim, ey muqaddas ona tilim!

Shoir o'z ona tiliga murojaat etib, qalbidagi, yuragidagi otashga aylangan chuqur muhabbatini jo'shib ijro etmoqda. Bu esa Vataniga, xalqiga bo'lgan muhabbatning aks sadosidir. Bu kabi ona tilimizni ulug'lovchi misralar ko'plab adiblarimiz ijodlarida ham o'z aksini topgan.

Ona tilimizni, uning barcha qirralari bilan chuqur o'rganish albatta yoshlarimizdan adabiy merosimizning bebaho xazinasidan joy olgan ulkan adiblarimiz asarlarini o'qib anglash bilan amalga oshadi.

Xususan, o'zbek tilining go'zalligini jahon sahniga chiqara olgan ulug' dahio Alisher Navoiyning, Boburmirzo, Furgatning A. Qodiriy, Cho'lpon, G'.G'ulom, Oybeklar asarlari tilining serjilo va milliyligi bilan ahamiyatlidir.

Mana shu uslubiy qo'llanmani yaratishdan maqsad, ta'lim tizimida muhim rol' o'ynagan va barkamol ongni shakllantirishda ma'naviy kuch bera oladigan onatilmiz haqidagi she'rlarni, buyuk adiblarimizning fikrlarini jamlab, ularni oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari o'qituvchilariga etkazib berishdir!

Ushbu qo'llanma uch bobdan iborat bo'lib, birinchi bob shoirlarimizning ona tilini madh etuvchi she'rlarini, ikkinchi bob ulug' allomalarning ona tilimiz to'g'risidagi fikrlarini, uchinchi bob bayram tadbirlarini o'tkazish uchun yordam beradigan scenariylarni o'z ichiga oladi.

Mazkur «Uslubiy qo'llanma» o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'ygan:

1. O'quvchini mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish
2. O'quvchilarning kommunikativ savodxonligini (so'z boyligi, ijodiy tafakkur doirasini kengaytirish, yozma va og'zaki fikr ifodalash mahoratini yuksaltirish)

DTS talablari darajasiga ko'tarish

3. Yozma fikr ifodalash (bayon, kichik insho, matn) ko'nikmalarini va notiqlik mahoratini shakllantirish

Kitobning birinchi bobida ona tilimizni madh etib yozilgan she'rlar beriladi. Til to'grisidagi she'rlarni jamlab berilishidan maqsad shuki, ular til bayramlarining yuqori saviyada o'tishida yo'rdam beradi.

Ikkinchi bobda esa millatni ruhi bo'lgan ona tilimiz to'grisidagi ulug' allomalarning fikrlari keltirilgan. Ular o'quvchilarning ma'naviy ongini yuksaltirish hamda notiqlik san'atiga ega bo'lishlariga yo'naltirilgan fikrlar majmuidir.

Uchinchi bob bayram senariylaridan iborat. Unda o'qutuvchilarga uslubiy dastak bo'ladigan fikrlar dasturi berilgan.

Uslubiy qo'llanmada asosiy e'tibor talaba yoshlardagi ijodiy tafakkur kurtaklarini rivojlantirishga, undagi iste'dodni yuzaga chiqarishga, go'zal qiroat sirlarini egallashga qaratilgan.

Har yili bayram sifatida nishonlanayotgan Til bayramlari ko'tarinki ruhda olib borilsa, o'quvchilar qalbida millatiga, halqiga, vataniga bo'lgan muhabbat tuyg'ulari yanada jo'sh uradi.

Zero, til millat ko'zgusi. Millatning namoyon bo'lishidagi eng oliy belgidir.

## 1-BOB. O'ZBEK ADIBLARINING ONA TILI HAQIDAGI SHE'RLARI

Alisher Navoiy

Senga ancha haq lutfi voqe'durur,  
Ki to turk alfozi shoe'durur.

Bu til birla to nazm erur xalq ishi  
Yaqin qilmamin xalq sinidek kishi

Agar bir qavm, gar yuz yo'qsa mengdur  
Muayyan turk ulusi xud meningdur

Olibmen taxti farmoniga osaq

Cherik chekmay Xitodin to Xuroson  
Xuroson demakin Sherozu Tabrez  
Ki qilmindur koyi g'ilkim shakarrez.

## Avaz O'tar o'gli

### TIL

Har tilni biluv emdi bani odamda jondur,  
Til vositai robitai olamiyondur.

G'ayri tilini sa'y qiling bilgali, yoshlar,  
Kim ilmu hunarlar rivoji andin ayondur.

Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,  
Bilmakka ani g'ayrat eting foydayi kondur.

Ilmu fan uyiga yuboringlar balangizni,  
Onda o'qiganlar bori yaktoyi zamondur.

Zoro'lmasun onlar dog'i til bilmay Avazdek,  
Til bilmaganidan aning bag'ri to'la qondur.

## Muazzamxon (XIX asr II yarmi 1917)

Bolamning soyasida o'ltururman deb vatan tuttim,  
O'lum jallodi keldiyu tepib buzdi makonimni.  
Niholu bog'i ummidum raso bo'lganida sindi,  
Ajalni tupquni tegdi-qurutti bo'stonimni.

Charog'i ro'zg'orim ayni ravshanligida o'chti.  
Qolibman zulmat ichra hech kishi bilmaydi holimni

Qayu majlis aro kim shahri ahvolim bayon qilsam.  
Ko'zidan qon to'kar har kim eshitsa dostonimni

Muazzam bir qalandarman jahonda hech nishonam  
yo'q

Nishon deb sarhaga chektim raqam nazmi ravonimni.

CHO'LPON

TIL

Mungli qushim, sayrab-sayrab kel, anglat,  
 Kimlar erur Turk tilini sotg'uchi?  
 Bulbul kabi sayrab turgan bu tilni  
 Uyalmayin bu o'lkadan otg'uchi?  
 Bolday totli, jondan aziz turkchani  
 Tushunmayin, xo'rlab-xo'rlab yotg'uchi?  
 Mungli qushim, ularni qo'y, sen sayra!  
 Turk tilining dong'in chiqar ko'klarga!  
 Qo'y ularni, ular yo'ldan ozsinlar,  
 El ichida bo'sh bo'g'izlik sotsinlar!

Elbek

Ona tilim, sen ruhimning qanoti  
 Abut turk nafasi, Oltoy chechagi.  
 Xun davridan omon keldi g'iroting;  
 Qutlug' Enasoyning ezgu ertagi.  
 O'rxun bo'ylarida tolika aylanding,  
 Ko'klarga sanchilding, Turon bo'lding sen,  
 Mangulik safarga qachon saylanding?  
 Qachon bu olamga-kuchga to'lding sen?  
 Porloq osmoningda quzg'unlar uchdi,  
 E voh, yog'iylaring soldi yag'moni.  
 Yog'iylaring jigar-qoningni ichdi,  
 Jigar-qon jarangi tutdi dunyoni.  
 Onasen. Kechirding. Qonidan kechding,  
 Biroq kechirmading aslo yolg'onni.

## TIL XAQIDA

Asar yozding ersa ona tilda yoz  
Yo'q esa aning yozgani buzgani  
Taralmish butun er yuza ilmu fan  
To'liq til kerakdir ani bilgani  
To'liq til qarindosh ona til erur  
Bo'lurmi kishi andin ayrilgan  
Kishi o'z tilini yaxshi bilmas agar,  
Bilingkim, har ishdan keyin qolgani  
Agar xo'rlasa kishi o'z tilin  
Vatan xoinidur, Vatan dushmani  
Sut emganda kirgan ona til erur  
Onayu ota xaqqa saqla ani  
U yolg'il bu so'zdin tiling saqlagil  
Tili o'zdi ersa kishi o'zgani  
Yoshi oltmish olti erur bilsangiz  
Yozibdur bu so'zni Ota Sog'uniiy

## ONA TILIM

Ajabo! Tush degan narsa qiziq-da  
O'lib qolganmishman tushda nogahon.  
Ko'ksimda qo'rg'oshin, quyosh tig'ida,  
Tog'lar orasida yotibman bejo.  
Uzoqda sharqirab soylar oqmoqda,  
Borliqda bir ajib dilbarlik hokim.  
Men esam o'ylayman yotib tuproqda,  
Mana shu tuproqqa qo'yishar hokim.  
Men o'lib yotibman kimsasiz, unut,  
Hech kimsa qayg'urmas va chekmas yohu.  
Faqat cho'qqilarda kurkirar burgut,  
Faqat vodiylarda ingraydi ohu.  
Navqiron yoshimda bo'ldim-ku ado,  
Otash yuragimni o'ydi axir o'q.  
Na yorim, na onam bernaaydi sado,  
Do'st tugul, hattoki yig'ichi ham yo'q.  
Fig'on otiladi jonsiz bag'rimdan,  
Go'yo fig'on bordek murda dilimda.  
Shu payt ikki kishi o'tdi naridan,  
Quvnoq suhbat qurib, ona tilimda.



Men ku bu dunyodan ko'z yumdim mangu,  
Ular kulib-kulib so'zlashar borin.  
Qandaydir Hasanning turfa ishi-yu,  
Qandaydir Alining sho'x kirdikori.

Ona tilim tinglab kirdi menga jon,  
Ohista tirildim va shunda bildim:  
Meni tuzatolmas xech dori darmon,  
Jonimga payvanda shu ona tilim.

Mayli, kim qay tildan zavqu-shavq olsin,  
Mening o'z tilimga ming jonim fido.  
Erta ona tilim agar yo'qolsa,  
Men bugun o'lishga bo'lurman rizo.

Mayli qashshoq bo'lsin, mayli behasham,  
Lekin mening uchun aziz va suyuk.  
Jahon minbaridan yangramasa ham,  
Ona tilim menga muqaddas buyuk!

## ONA TILIM

Ona tilim-onajonim tili bu,  
Beshikdanoq singan jonu quloqqa.  
Elu yurtim, xonumonim tili bu,  
Qadimlikda o'xshar ona tuproqqa.  
Bobolardan bizga meros ezgu til,  
Avlodlarga xazinayi bebahga.  
Qalbimizga, ruhimizga ko'zgu til,  
Bu dunyoga bag'ishlamish ne daho...  
Yobonlarning cheksizligi,  
Ham samumi, ham hovuri,  
Onajonlar allasidan,  
Ko'z yoshidan, oq sutidan,  
To'qaylarning tengsizligi,  
Jilg'alarning sho'x g'ovuri  
Yigitlarning yallasidan  
Suluvlarning sukutidan-  
Yo'g'rilgan til-Ona tilim.  
Daryolarning toshqin payti

Arslon yanglig' arillashi,  
 Dovonlarning ko'k qiyosi,  
 Qorli tog'lar jilosidan,  
 Cho'ponlarning qamish bayti,  
 Childirmaning darillashi,  
 Go'ro'g'lining alp siymosi,  
 Alpomishning da'vosidan-  
 Tug'ilgan til-Ona tilim.  
 Talonlarda talanmish, yog'inlarda qovrilmish  
 Ertakligu cho'pchaklik, odimi til bu  
 Bo'ronlarda samonlik talay-talay sovrilmish  
 Bu dunyoning o'zidan qadimiy til bu  
 Shu tilda qo'shiq aytmish To'maris xotun  
 Bu tilga ta'zimkormish mavlono Jomiy.  
 Shu tilda o'z jarangin topmish Aflotun  
 Bu tildan xabardormish buyuk Nizomiy.  
 Bu tilga olis emas manasday Shavvoz  
 Toshlariga naqsh bo'lib uyulmish til bu  
 Bu tilda kuylab o'ldi hiroflik ustoz  
 Qaro qo'rg'oshindan quyilmish til bu  
 Bu til begonamas Muso Jalolga  
 Inqilob ello'g'ida yarqiroq til bu

Nahot hojat bo'lsa ortiq dalilga  
 Tog'dan oqqan suvdek sharqiroq til bu  
 Ofema taqdiriga kuydik  
 Shu til tufayli  
 Shu tilda jarangdorrog tarang  
 Pushkin tori ham  
 Shotani ham nechog'li surdik  
 Shu til tufayli  
 Hayyom qo'shiqlari ham  
 Rabindranat zori ham  
 Zardo'sht falsafasin ham  
 shu tilda mag'zin chaqdik  
 Yurakka joylay oldik,  
 Shu ona tilimizda.  
 Zamon oqimlarida shu tilda ravon oqdik,  
 Cho'qqilarga yo'l oldik,  
 Shu ona tilimizda.  
 Bobolardan bizga me'ros ezgu til,  
 Avlodlarga xazinayi bebaho.  
 Qalbimizga, jonimizga ezgu til,  
 Bu dunyoga bergay hali ko'p daho...

## ONA TILIMGA

Ming yildirki, bulbul kalomi  
O'zgarmaydi, yaxlit hamisha.  
Lekin sho'rlik to'tining holi  
O'zgalarga taqlid hamisha

Ona tilim, sen borsan shaksiz  
Bulbul kuyin she'rga solaman  
Sen yo'qolgan kuning, shubhasiz  
Men ham to'ti bo'lib qolaman.

## ONA TILIM O'LMAYDI

Notiq dedi:  
Taqqir shul,  
Bu jahoniy iroda.  
Tillar yo'qolur butkul,  
Bir til qolur dunyoda.

«Ey voiz, pastga tushgin,  
Bu gap chiqdi qaerdan»?  
Navoiy bilan Pushkin,  
Turib keldi qabrdan.

Kim darg'azab,  
Kim xayron,  
Chiqib keldilar qator:  
Dante, Shiller va Bayron.  
Firdavsiy, Bal'zak Tagor.

«Va'zingni qo'y birodar  
Sen aytganing bo'lmaydi».  
Barcha dedi barobar:  
«Ona tilim o'lmaydi».

-Hey, bu qanday aqida?  
Qilida tabarruk jom,  
Forsiy tili haqida  
Ruboiy aytdi Xayyom.

Ehtirosli, otash dil  
Beranje so'rdi nolon:  
-Nahotki, farangi til  
Yo'qolg'usi bir zamon?!  
Neruda, Lorka turdi  
Servantesning yoniga.  
Kim qasd etib, tig' urdi  
Ona tilim joniga?

Fuzuliy yondi;

-Ozar

Tili guldek so'lmaydi.  
Barcha dedi barobar;  
«Ona tilim o'lmaydi».

Kamalakdek ranggo-rang  
Bo'lsin deb san'at, tillar.  
Asrlarga qildik jang,  
Armon qildik ming yillar.

Beqadr bo'lsa, hayot,  
Tillardagi tarovat!  
Yo'qoldi bu kun, hayhot,  
Qabrlarda halovat.

«Faust» yondi gurillab,  
«Hamsa» o'tga tutashdi.  
Bir sado jaxon bo'ylab  
Taraldi tog'lar oshdi.

Bu sado yangrar hamon,  
Sira ado bo'lmaydi.  
Olam aytai,  
-Hech qachon  
Ona tilim o'lmaydi.

## Muhammad Yusuf

### ONA TILIM

Garchi zug'um qilganlarni yoqtirmadim,  
She'r yozdimu bo'lak ishni qotirmadim.  
Tilim turib, o'z tilimda gapirmadim,  
Bir eslasam eziladi bag'ri dilim,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.  
Onam erkam deb quchganda tunlar yarim,  
Erkim yo'q deb zirqirardi bir joylarim,  
Paravozni hansiratgan bug'doylarim,  
Oltinlarim, ma'danlarim, ipaklarim,  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Kimlar uchun biz edik bir badaviylar  
O'zbekni qon qaxshatganni o'zbek siylar  
Holimizni qon kuzatdi Yassaviylar  
Topganimiz handalakdek tilim-tilim  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.  
Kimdir mayda millat bo'ldi, kimdir katta  
Katta millat afandisi yo'qdir hatto  
Biz piyoda, biz boqqanlar yurdi otda,

Zulm o'tsa, faqat sendan o'tdi zulm  
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.  
Bir qarasam, har shevangda ming jilolar,  
Har novdangda, har mevangda ming jilolar.  
Qodiriyalar, Cho'lponlaru, Abdullolar,  
Sening qaytgan kuning  
mening tug'ilgan kunim  
Ona tilim, ey muqaddas, Ona tilim!

## Halima Xudoyberdieva

### “ESKI O‘ZBEK TILI”ga YOZUV

Mening tig‘ tilgan tilim

Mening kesilgan tilim,

Bahaybat to‘g‘on tushib,

Yo‘li to‘silgan tilim.

Qushning unut patiday

To‘kilgan unut jonim,

Yo kitoblarning qatida

Rangi-ro‘yi somonim.

“Eski o‘zbek tili”mas,

Dedilar eskirgan til,

Qo‘rqib chiqarmoqqa sas,

Sandiqlarga kirgan til.

Senda bobom isi bor,

Senda bodom isi bor,

Bolam na rus, na o‘zbek,

Arosat belgisi bor.

Besh yuz yillar avvalgi

Xatni men anglayman, bas,

Men bugun aytganimni

Bolam ba‘zan tushunmas.

Ko‘kragimni dod qotgan,

Yaqinlashar katta xavf,

O‘z tilini yo‘qotgar

Xalq bo‘lmasmi erdan daf.

Oldga, safarbarlikka,

Qanday yaraydi bolam.

Ortidagi jarlikka,

Qanday qaraydit bolam.

Uni kim qilib qo‘ydim,

Kim bo‘ldi og‘am-inim,

Tomir-tomirim kuydi,

Sindi bo'g'in-bo'g'inim.

Guli unut xalq bo'ldik,

Yo'li unut xalq bo'dik,

Ommaviy gunglik sodir,

Tili unut xalq bo'ldik.

Umrinning shom kechiga

Shu o'y sanchilib turib,

“Lug'atit-turk” ichiga

Yoshim tomchilab turib,

Dedim; tig' tilgan tilim,

Mening kesilgan tilim.

**Xurshid Davron.**

## **ONA TILIM**

O'z tilini unutgan xalqning

Bog'larida o'sgan gullarni

Chirmab olar zaharli ilon.

O'z tilini unutgan xalqning

Osmonida porlamas quyosh.

Nur o'rmda to'kiladi tosh.

O'z tilini unutgan xalqning

Uyqusida aslo orom yo'q

Tegib turar kuragiga o'q.

O'z tilini unutgan xalqning

Mozorida ajdodlar qabri

Uzra qo'yar bolalar tikan.

Kelib ketdi necha dunyolar,

Kuldi hayot, yig'ladi o'lim

Sen deb qurbon bo'ldi bobolar,

Ular ketdi, sen qolding, tilim.

Belanchaging uzra Qoshg'ariy

Kuylab o'tdi qadim navoni  
Va navqiron yaproqlariga  
Dil qonini berdi Navoiy  
Samarqanddan Bobur ketarkan  
Dilda bo'g'ib hasrat sasini,  
Olib ketdi ana yurtidan,  
O'zbek tili birgina seni.

Mashrabmas, sen osilding dorga,  
Nodiramas, sensang so'yilgan  
Hozirningmas, sening, ey tilim,  
Boshing ayri, ko'zing o'yilgan.

Ammo dushman o'ldirgan botir  
Tirilgandan yana qasosga,  
Mangu borsang va mangu qodir  
To'ldirmoqqa erni ovoza.

Vatan uchun baxsh etib jonni,  
Kechib olov, kirib daryoga,  
Farzandlaring to'kkan har qonni  
Shimirding sen o'xshab giyohga.

Ona tilim omon bo'l mangu,  
Sen borsan-ki, men ham o'lmayman.  
Tildan qolsam seni Oybekday,  
Men ko'zlarim bilan so'ylayman.



## TILINGDAN

Yozdi Navoiy maqtab qancha asar tilingdan,  
Holvacha qildi holva balkim shakar tilingdan

O'zbek qizi chamanda so'zla, yoqimli kuyla,  
Bulbul saboqlar olsin,  
ming ming sahar tilingdan

Qalbing uyi bezalgan bir to'y taraddudi bor  
Har lahza menga keldi bu xushxabar tilingdan

Lutfiy, Atoiy, Mashrab,  
Munis, Muqimiy, Furqat,  
Topdi o'z e'tiborni shu mo''tabar tilingdan.

Shunday shirin tiling bor,  
ochsa labing do'konin,  
Qilgay asal xoridin jumla bashar tilingdan.

## ONA TILIMDA.

Dunyo ilk sho'h mavjlanadir ona tilimda.  
Har bir so'zi yuz ma'nodosh durdona tilimda  
Izxdil ko'ngil chog'i ipak tovlanadir ul,  
Jang lahzalari g'olibu mardona tilimda  
Do'stlarni shirin davrasida shiru shakardir,  
Har jilvasi bir gulxanu, xulxona tilimda.  
Unda Navoiy ruhiyu, unda Bobur bor.  
Har shevasi bir qasru ila kamona tilimda.  
Dunyodagi bor ilmu hunar unda jilobahsh.  
So'ngsiz Xazina qomusu afsona tilimda  
Keng bu jahon ichra turar nomu nishoni,  
Ko'l daryo aro o'zbeku Farg'ona tilimda.

Til madhidan ochilsa dorilfunun falakda,  
Yulduz emas oftob yuzbob ochar tilingdan.

She'r butun Jahonda mashhur-u manzur o'lgay,  
Har shoirki ilhom olsa ochar tilingdan

Ming tilga tarjimon ham yuz til bilan qarindosh  
Bir tilda so'zlashurman  
dil bahramand tilingdan.

Maqtab tilingni yozdi, o'nlab asar Alisher  
Chustiy o'par kitobin, mazmun o'par tilingdan.

## TILDAN KELUR

Tilga so'zu ko'zga yosh dildan kelur,  
Kelsa boshingga na ish tildan kelur.

Ishga solsa qanchasin birlashtirib  
Xizmat etmak elga har qo'ldan kelur.

Ko'zga tuproq'lar sochish misli quyun,  
Beqaroru tab'i engildan kelur.  
To'smag'il har so'z yo'lin, bil avvalo,  
Ushbu karvon qaysi manzildan kelur.

Urma lof ba'zi chumoli singari  
Aslida zotim debon fildan kelur.

Tortma she'ring husniga hargiz niqob  
Garchi ziynat elga elingdan kelur.

Chustiy, ko'ngil bog'ini obod qil,  
Elga boylik katta hosildan kelur.

## UNUTILGAN TILLAR

Shumer tilimisiz yo sug'd, yo Yunon  
Akkab, Bobil, Kushon Misr tili yo  
Va yoki Sanskrit, Kxmer tili yo?  
Qaysi til bo'lmang siz, sizni beamon,  
Unutgan, unutgan, unutgan Dunyo!  
Siz so'zlay olmay siz, o'tmishingizdan.  
Kelajak haqida gap bo'lmog'i-dard.  
Yorug' xabar kutmoq, yo olmoqlik pand,  
Urf-odat aqida kechmishingizdan.  
Avlodlar nazdida qururuq matlab!  
Dengizning tubiga cho'kkan tog' kabi,  
Oq-qora dunyongiz birdek zimiston.  
Yo'qlik yo'llarida erur benishan,  
Xalqingizning orzu, amal murodi  
Eh ular hattoki, biz uchun armon!  
Unutildi uning bo'stoni, cho'li.  
Nahot qayrilmasdir qismatning qo'li,  
Nahot unutilish dardi muhoqqaq,

Nahot zabul o'ldi xalqingiz yo'li!  
Kim erur gunohkor? Yo'q, yo'q siz emas  
Rati xalqingizning gunohkor o'zi  
Yulduz edi ko'zi, tig' edi so'zi  
Paytida o'ylamoq kerak edi bas  
Paytida muqaddas taqdiringizni!  
Men olis asrdan so'zlasam bu kun  
Zor bo'lib jangari farzandlarga siz,  
Qilichlar tilidan unutildingiz!  
Qalqmadi istiqloq janglari uchun,  
Ul lolkur, beg'urur bandalaringiz.  
Unutilgan tillar! Hey yig'lang kuling  
Erkalab so'zlang, soching g'azablar,  
O'rtaoning, xayqiring bering sabozlar,  
Siz bilan billashmoq istayman biling.  
Mayliga ko'pirsin miya, asablar,  
Unutilgan tillar! Hey so'niq tillar,  
Bu dunyoga kelib nadir kelganim.  
Jahongashta bo'lib, nadir bilganim.  
Unutilgan tillar, hey o'lik tillar.  
Ona tilim o'lsa-xalqim o'lgani!

**Muhammad Rahmon**  
**MANA BUDAY UNING KO'ZLARI...**

Ishonmassan bu gapga, do'stim,  
Gunglarda ham zamon bo'ladi.  
Tilim mening shu ikki qo'lim,  
Ular yig'lar, ular kuladi.  
O'xshamaysan yomon odamga,  
Yaqinroq kel, tishlab olmayman.  
Sig'mayapman bugun olamga,  
Bilasanmi sevib qolganman!  
Mana bunday uning yuzlari...  
Mana bunday uning ko'zlari...  
Mana bunday uning lablari...  
Ergashaman soyasi bo'lib,  
Afsus menga qiz qiyos boqmas.  
Jerkir, ketar ustimdan kulib,  
Balki unga gungligim yoqmas.  
Davrasiga olgani zamon  
Madhiyalar o'qib xushtorlar  
Barmoqlarim dodlaydi:  
    -Yolg'on!  
Aldar seni shakarguftorlar.

Olamda bor shunday bir tuyg'u,  
Til bilan ham bo'lmaydi aytib.  
Koshki shuni tushunsaydi u,  
Yonginamga kelsaydi qaytib.  
Qalbim bilan allalar edim,  
Erkalardi ko'zlarim sekin.  
Ne ham derdim, nima ham derdim.  
Zorim bor-u, zo'rim yo'q lekin.  
Yuraversin u mayli mag'rur  
Men tomonga tushmay yo'llari.  
Balki, endi vasfin bir umr  
Kuylab o'tar sho'rlik qo'llarim.  
Balki, siylar meni ham taqdir,  
Bir kun nomin aytarman dadil.  
Jon chiqarda qaytarmish, axir  
So'qirga ko'z, soqovlarga til!  
Shu tasodif bo'lmasa, u kun  
O'z 'tilim'dan qilmasin judo-  
So'ngi imo-ishoralar uchun  
Qo'llaringa kuch bergin, xudo:  
Mana bunday uning yuzlari...  
Mana bunday uning ko'zlari.  
Mana bunday uning lablari...

## «BITIK TOSHLAR» ORZUSI

Qog'ozlarga yozdim... qog'ozlar yondi  
Bu sirni o'yladim-topdi nihoyat:

Men Usmon emasman, Alpteginman-men,  
Enasoy bag'rida tug'ilgan g'oya.

Qog'oz yaramaydi mening kunimga

Qog'ozga ko'chmaydi yonayotgan yurak.

Shalviragan qog'oz kerakmas menga

Dardimni bitgani menga tosh kerak.

Shamollar quritdi ko'zimdan yoshni,

Yillarning qatidan og'ir otdi tong.

Asrlar shafaqday chulg'adi boshni,

Miyamga o'q kabi sochildi-ku ong.

Menga bir tosh kerak osmon kabi keng,

G'azab kabi og'ir, g'amday benavo...

Menga bir tosh topib berolmading, sen-

Toshlari tuproqqa aylangan dunyo.

## ONA TILIM

Paxtakor xalqimning dilidek jo'shqin,

Bahordek ilhombaxsh ona tilimsan.

O'zbekcha she'r o'qir Lermontov, Pushkin,

Tuganmas xazina bitmas bilinmas,

Navoiy g'azalin har bir satrida.

Nafosat go'zallik shu tilga xosdir.

Shunchalar qudrat bor so'zning atrida,

Har bir so'z durdona yoki olmosdir.

Tongotar fayzini nay navosini,

Dalalar shukuhin ob-havosini,

Visol chog'larini dil sadosini,

Odamning jamiki muddaosini,

Barini barini kuylamoq mumkin

Odamda ne bo'lsa o'ylamoq mumkin

Shu qadar serma'no ona tilimsan,

Tarjimon eng dono ona tilimsan.

Dunyoda eng ulug' muqaddas so'zni,

Shu tilda aytganim bilan baxtliman.

Yurak maxzanining ochqichi sensan,  
Sening boyliging-la men qudrathiman.  
'Paxta' degan bitta oddiy so'zingda,  
Jahonga arzirlilik ulug' ma'no bor.  
Nega maqtamayin men ona tilim,  
Dilrabo so'zlari o'ynatsa dilim.

## Barot Isroil

### MULOQOTGA CHORLAR-O'ZBEK TILI

Asragay balo qazodin O'zbekistonim,  
o'zbek tili

Eturgay asray orzuga insonni, o'zbek tili

Ellu elan, urug'lar ko'p-shirin suxan shevalari,  
Muloqotga chorlar mudom jumla jahonni  
o'zbek tili

Turkiy insonni o'qibon tilim chiqmish  
xudo shohid

Oyoqqa turg'izgay shoyad qadim  
Turonni o'zbek tili

E'zoz aylab ellin, tilin o'zbekona so'zlasa kim,

Yaqin etar barcha xalqin,  
davru-davronni o'zbek tili.

Achchiq-chuchuk degay tiling, Barot,  
o'ylab gapirgin sen,

Turk qovmin jam etar shaksiz

Turkistonni o'zbek tili.

## ONA TILI

Men yo'lda uchratdim: ikki shod o'rtoq,  
Xorijiy bir tilda gaplashdi shoyon.  
Suhbat avj pardaga chiqqanda biroq,  
Hasratin o'zbekcha ayladi bayon.

O'rtanma, bu dunyo shunaqa o'zi:  
Sen-menga, men-Unga fido o'tayapmiz.  
Qo'lga ne kiritisin-gulmi, yulduzmi,  
O'zimiz qo'shqo'llab unga tutyapmiz.

Birovni o'ylamoq, seva olmoq-baxt,  
Topmasak ham garchi yulduzimizni.  
Gar shunday bo'lmasa, bo'lib falokat,  
Sevib qolarmidik o'z-o'zimizni.

## TILIMGA TEGMA

Men sening tilingga tegmasman, jallod,  
Sen ham mening ona tilimga tegma!  
Sening ham bog'ing bor, guling bor, chekin,  
Bog'imda ekilgan gulimga tegma!  
Hasad ila boqding chamanimga sen,  
Ko'r, ne balo etding Vatanimga sen,  
Yon, deding, o't qo'uyding badanimga sen,  
Qo'lingda olov bor, gulimga tegma!

Men oqni oq-dedim, qorani qora,  
Osmoqni istading sen meni dora,  
Hali bitmagandir u eski yara,  
Mening jarahatli qalbimga tegma!

### **Dilorom Qo'zijon qizi Uzro**

Yurt tilim-yurak tilim,  
Millat tilim, jon tilim.  
Yog'iga qirol tilim,  
Tog' egasin og'zida,  
Aylanmay qon tilim.  
Hayolsan sursam hayolim,  
G'animlarga malolim,  
Ko'nglimning xazinasi,  
Bu dunyoda halolim.  
Mehrimning izhorisan,  
Borlig'imning borisan.  
Boshinga ko'targanim,  
Sen erkning do'st-yorisan.  
Yurak yozsam-jahonim  
Ey, ilohiy qalqonim  
Ko'ngildan ko'ngillarga  
Bir mo'jiza afshonim  
Yurt tilim-yurak tilim.  
Millatga tirgak tilim,  
Seni suygan qalblarga,

Vatandek kerak tilim,  
Millat tilim, jon tilim,  
Men seningman, jon tilim.



## ONA TILIM

O'zbek tili-Onam tilim,  
O'zbek tili-Otam tilim,  
Urug' -aymoq, Momom tili,  
Yashab turgan bobom tili.  
Tillar aro yirik til-bu,  
Abadiyga tirik til-bu,  
Shu tilda "Qutadg'u bilig",  
"Devoni lug'atit turk"  
bitilgani ayon bizga,  
Ayon turkiy elimizga.  
Tarix bilan falsafada,  
Aljabrda, xandasada,  
Al-Farg'oniy, Ulug'bek,  
Beruniyni tanir jaxon.  
Al-Xorazmiy, Farobiy kim,  
Mutafakkir, Oli hakim!  
Hazrat Navoiyga qarang  
She'r misrasi pishiq, tarang.

"Chor devon" ni o'qigan choq,  
Dil vujuding yayrar o'rtoq!  
"Hamsa"sida besh kitob jam,  
Besh kitobmas, besh oftob jam.  
Farhod, Qays, Iskandari,  
Mer Layli, Shirinlari  
Pok sevgida vafodor, do'st,  
Ta'rifiqa ojizdir so'z.  
Tarix uzoq olis o'tmish,  
Kimmlar kelib, kimmlar ketmish.  
"Hapalak"ni yozib Maxmur,  
Dedi shohga: "G'aflatdan tur"!   
Turdi bitib zamon zahrin,  
Ulug'ladi inson qadrin.  
Gulxaniyda "Zarbulmasal"  
Bunda jamdir to'rt yuz asar.  
Ma'rifatga chorlar Furqat,  
Nozik ifodalar qat-qat.  
Mavloni Muqimiy ustoz,  
O'ta donno askiyaboz.  
"Navbahor"ni zavqi dilda,  
G'azallari qo'shiq tilda

## ONA TILIM

Ona tilim-jon tilim,  
Ona yo'lim-shon tilim,  
Ulug'larga yor bo'lgan,  
Chirog'im – pilik tilim.  
Ona tilim-jon tilim  
Jonday aziz, non tilim  
Navoiy, Bobur bo'lib,  
Zuhro-yu Tohir bo'lib  
Qonimdan ungan tilim.  
Ona tilim-jon tilim,  
Bir tanu, bir jon tilim  
Istiqlolim jamoli,  
Istiqbolim kamoli,  
So'zma-so'z ravon tilim,  
O'zga-o'z jahon tilim.

“O'tgan kunlar”, “Obid ketmon”,  
Dillarda “Mehrobdan chayon”  
Otabeg-u, Kumush, Ra'no.  
Har so'zida rostlik ma'no.  
Qodiriyni tili sodda  
Abadiyga nomi yodda,  
Oshkoralik zamon bugun  
Echilmoqda mushkul tugun  
Yangilanish-tiniq hayot,  
Uchun dadil yozib qanot  
Davlat tili bo'ldi tilim,  
Quvonchlarga to'ldi dilim.  
O'zbek tili-Onam tilim,  
O'zbek tili-Otam tilim,  
Shu til bilan aytib alla,  
Goh sekinu, goh baralla  
Beshigimga belab onam,  
Omonligim tilab otam,  
Eng lazizi hammasidan  
Boqqan oppoq siynasidan.  
Davlat tili bo'ldi tilim.  
Quvonchlarga to'ldi dilim.

## Mahmud Toirov

### ONA TILIM

Qadrim so'raganda qayrog'im, tilim,  
Yorning ta'rifida qaymog'im, tilim,  
Yovning yuragiga titroqlar solgan  
Alpomish belida belbog'im, tilim.

Yassaviy baytida tumorim, tilim,  
Navoiy nazmida sen orim, tilim,  
Kumushning vazfida betakror malak.  
Qodiriydan qolgan yodgorim, tilim.

Onam allasida bayotim manim,  
Bolam og'zidagi novvotim, manim,  
Oq-sariq ilonlar bo'ynidan bo'qqan.  
Tanglayda tosh qotgan faryodim manim.

Toshlar to'fonida bag'ri tilimsan,  
Ko'ksin changallagan qonli qo'limsan,  
Oyga almashmasman, kunga bermasman,

Cho'lpon yuragida ungan gulimsan.

Ko'zlarning gavhari, ko'ngil oynasi,  
Izhor iiffatdir yorning ginasi.  
Mashrab qalamida devona tilim,  
Tinglagan intiqqan ishq ashulasi.

Jismimda demangiz, jonimda tilim,  
Etmish ikki tomir-qonimda tilim.  
O'g'limga ham mening jonimdan o'tgan,  
Qizimga qatralab qonimdan o'tgan.

Qadrim so'rasangiz qarog'im tilim,  
Ko'ngil osmonimda chaqmog'im tilim,  
Nondek totli-yu, choydek issiq,  
O'zbek ko'ksidagi bulog'im tilim.

## Rustam Musurmon

### SHOIRNING QO'SHIG'I

*"She'r shoirning qo'shig'i.*

*She'r o'qilmaydi*

*Balki ijro etiladi"*

**Ustoz Abdulla Oripov**

Xalilla, xalilla

She'r o'qishning ashula

Tiling-cholg'u, bug'izing tor,

Dovushing bor jarangdor.

Xalilla, xalilla,

She'riyat-hikmat illo,

She'rni-o'qish ibodat,

Yaratganga munojot

Xalilla, xalilla,

Dovushdan ojiz imlo.

Tilsiz qalam va qog'oz

Ovoz bo'laolmas, ovoz.

Xalilla, xalilla,

Xalqning merosi tilla-

Baxshilarni tuqqan tuproq,

Mirtemir chalgan qo'ng'iroq.

Xalilla, xalilla,

Ulug' ustoz Abdulla.

Butun jahonda bulbul

Qoshg'ariydan qolgan til.

Sor dedi-yo, sor dedi,

Tog'lar boshi qor dedi.

Zo'r kuylading, bizdayam

Senday cholg'u bor dedi.

Xalilla, xalilla,

Dumbra chaldim shu pila.

Men senga jo'ra bo'ldim,

Sen menga jo'ra bo'lding.

Xalilla, xalilla,

Yalla, yalla, yalla.

Yangrayversin baralla

Terma, doston, ashula...

## II BOB.

### O'ZBEK ADIBLARINING ONA TILIMIZ HAQIDAGI FIKRLARI

Ona tilini inson tafakkurini tarbiyalovchi va inson fikrlash qobiliyatini o'stiruvchi ishi deb tan olish hamda uni o'rganishga juda katta e'tibor berish kerak.

#### **Abu Nasr Farobiy**

Ona tili miyadagi emosional mexanizmning rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. Bolalikdan egallangan ona tili har bir etnik guruhning uziga xos, betakror madaniyati va ruhiy olamining shakllanishi bilan chambarchas bog'liq.

#### **Abu Nasr Farobiy**

Insonlarning din dunyolarini tuzatmak matlub bo'lsa, eng avvalo go'zal xulqqa ega bo'lmoq ularni tuzatgiz. Tillar tuzalgandan so'ng, din ham, dunyo ham tuzaladi.

#### **Rizouddin ibn Faxriddin**

Til- so'zlovchi istagini tinglovchiga yetkazuvchi tarjimon.

#### **Abu Rayxon Beruniy**

Zakovat, bilimning tarjimoni til,  
Yorug'likka eltar kishini u bil.

#### **Alisher Navoiy**

Aqlning ko'rki - til,  
Tilning ko'rki - so'z.

#### **Yusuf Xos Hojib**

Tili chin kerak, bo'lsa ko'ngli ulug',  
Nafi tegsa uning eliga to'liq.  
Kishini til ulug'lasa bo'lur baxtiyor,  
Kishi tili tubanlasa, boshi yorilar.

#### **Yusuf Xos Hojib**

Bir ul yanglishar ersa kerakli so'zin,  
Ikkinchi so'zi yolg'onchi qilur ul erning uzin .  
Birovdan birovning fark kilur tili,  
Va lekin kup maksadin anglatur tili.

#### **Axmad Yugnakiy**

O'quv va bilimning tilmochi, tarjimoni tildir.

#### **Yusuf Xos Hojib**

Chun topdim ul kamol ichra kamol  
Turk alfozi bila surdim maqol.  
Turk nazmida chu men tortib alam,  
Ayladim ul mamlakatni yakkalam.

#### **Alisher Navoiy**

Suzdurlkim, nishon bulur ulikka jondin  
Suzdirki, berur xabar jonondin

Insonni suz ayladi judo xayvondin,  
Bilkim gavhari sharifrok yuk ondin.

**A. Navoiy**

Til bilgan - el bilar

**Xalq maqoli**

Ajoyib o'qituvchi bo'lgan ona tili ko'p narsani o'rgatadi,  
O'rgatganda ham oson, g'oyat qulay uslub bilan o'rgatadi.

**Abdulla Avloniy**

Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan, aynan  
hayotini ko'rsatadigan til va adabiyotdir.

Milliy tilni yo'qotmoq, millatni yo'qotmoqdir.

**Abdulla Avloniy**

Hamma til ham qo'shni tillardan karz oladi, busiz iloj yo'q -  
agar faqat o'z tilingdagina yozilsa shirasiz, quruq chiqadi

Yozuvchi o'z xalqining tilini bilishi shart.

**Abdulla Kodiriy**

Til bu ijtimoiy xodisa, u kishilik jamiyatining eng muxim  
aloka vositasi bo'lib, jamiyatga xizmat qilmog'i lozim.

**I. Karimov**

Jamiki ezgu fazilatlar inson kalbiga, avvalo, ona allasi, ona  
tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili - Bu millat  
ruxidir.

**I. Karimov**

Komil bo'l har jixat tomoning bilan,

Tariqat, ma'rifat zaboning bilan.

Til bilgan el bilur, jaxon seniki,

Til bilu sirlashgin zamoning bilan.

**A. Oripov**

Tilshunoslik sohasidagi ilmiy izlanishlar, avvalombor,  
o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va qullanish  
soxasi ancha kengaytirilgani, xalqoro munosabatlarda  
ishlatiladigan tillar qatoriga kiritilishi keyingi

Yillarning bu boradagi ulkan yutug'idir.

**I. Karimov**

✓ Til - juda o'tkir qurol.

**I. Qo'chqortoev**

✓ Til har qanday madaniyatning shakli va muayyan xalq taraqqiyotining ko'zgusidir.

### **O'. Hoshimov**

Til millat ko'zgusi. Til inson ko'nglining darakchisi, bu til orqali ezgu niyatlarimizga, maqsadlarimizga erishamiz.

### **N. Mahmudov**

Ona tili parvarishi va uning sofliги uchun nafaqat jurnalistlar, yozuvchilar, shoirlar, o'qituvchilar, tilshunoslal, balki barchamiz mas'ulmiz.

### **B.Yuldoshev**

Har bir xalk ism tanlashda o'z ona tilining so'z boyligiga, imkoniyatlariga tayanadi.

### **Ernst Begmatov**

Adabiy til normasiga qat'iy amal qilish ona tiliga, uning sohibi hisoblangan o'zbek xalkiga, vatanimizga hurmat, e'tibor ko'rsatish bilan barobardir.

### **Abduvali Abdusaidov**

Ona tilimizda iymon juda ko'p qo'llaniladi, juda kuchli va o'tkir tushunchalarni bildiradi.

### **Abdukahhor Ibragimov**

Birgina til so'zi misolida ham ona tilimizning naqadar boy va serjilo ekanini yaqqol ko'rish mumkin.

### **Abdukahhor Ibragimov**

Har bir ijodkor xoh u shoir yoki yozuvchi yoxud publicist bo'lsin, yozayotgan asarida o'zbek tilining so'z boyligidan keng ko'lamda foydalana bilishi kerak.

### **G'aybulla Salomov**

Til millatning so'zlashuv quroligina emas, u millatning yashash tarzi madaniyat va ma'rifat beshigi hamdir.

### **Asil Rashidov**

✓ Til bor- davlat bor.

### **Najmiddin Komilov**

Til millatning birinchi haqqidir. Shu haq o'ksitilgan bo'lsa, demak, millat o'zini-o'zi o'ksitib kelgandir.

### **Ibroxim G'afurov**

### III. BOB.

## TIL BAYRAMLARI UCHUN SCENARIYLAR

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risidagi" Qonunning qabul qilinganiga 15 yil to'lishi munosabati bilan institutda o'tkaziladigan "Ona tilimiz – ezgu yo'limiz" nomli adabiy – ma'rifiy dasturning SCENARIYSI (2004 yilning 19 oktyabri.)

Sahna. Zal tomoshabinlar bilan gavjum. Sahnaning o'ng tomonida minbar qo'yilgan.

Ovoz:

Madhiya ohangi dilga jo bo'lgan  
Xalqimning qalbida misli  
chaqindir.

Millatning tilidan ko'chadi dilga,  
Bu ohang ko'ngilga, ruhga  
yaqindir.

Davlat madhiyasi yangraydi

Ovoz:

Til millatimning erur nomusi  
Uzoq o'tmishimning erur qomusi  
Kimliging tanituvchi jumla jahonga  
Xalqimni eltuvchi shuhrat va  
shonga.

Ovoz: O'zbekiston Respublikasi "Davlat tili to'g'risidagi" qonunning qabul qilinishi o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga 15 yil to'lishi munosabati bilan o'tkazilayotgan adabiy –ma'rifiy tadbirimizga xo'sh kelibsiz,azizlar!

Shu munosabat bilan so'z 'O'zbek tili va adabiyoti'

kafedrasining mudiri Ravshan Oripovich  
Jomonovga.Marhamat.

(R.Jomonov so'zi.)

Sahnaga ikkita boshlavchi chiqib keladi.

**1-boshlovchi.** Assalomu –alaykum muhtaram murabbiylar, ustozlar, qadrlil talabalar, hurmatli memonlar!

Har bir xalkning borligi, uning tili bilandir.Millatning tayanchi,suyanchi, quvonchi, barhayotiligi boisi ham uning tilidir.

**2-bohlovchi.** Til- dil ko'zgusi.Ko'ngil qulf bo'lsa,til kalitdir.Maqsadu maslaklar,majabu mafkuralar manbai ham tildandir.Shunday ekan davlat tiliga hurmat har bir fuqaroning burchidir.Til qadrini bilgan el dardini biladi.

"Tilga extiyorsiz elga e'tiborsiz" Ha, Navoiy hazratlarining ushbu hikmati hamma davrlarda bir xil aks sado berib turishi,mohiyat kasb etishi muqarrardir.

### 1-boshlovchi

Mayli kim qay tilda zavqu shavq olsa  
Mening o'z tilimga ming jonim fido  
Erta ona tilim agar yo'qolsa  
Men bugun o'lishga bo'lurman rizo.

### 2-boshlovchi:

behasham

Mayli qashshoq bo'lsin, mayli

Lekin mening uchun aziz va suyuq,  
Jahon minbaridan yangramasa ham,  
Ona tilim menga muqaddas,buyuk!



Keling, faxrimiz va g'ururimiz manbai bo'lgan ona tilimizga bag'ishlangan musiqiy –ma'rifiy guldastamizni qabul aylang.

Ovoz:

Navoiy g'azalin har bir satrida  
Nafosat, go'zallik sharq tilga xosdir  
Shunchalar qudrat bor so'zning atrida,  
Har bir so'z durdona yoki olmosdir.  
Tongotar fayzini, nay navosini,  
Dalalar shukuhin ob havosini,  
Visol chog'larini dil sadosini  
Barini, barini kuylamoq mumkin.

Ovoz: Qo'shiqni Fero'zaxon Primova ijro etadi. Navoiy g'azali

“Aylagach”.

Ovoz: Til barhayot ekan yashaydi millat,  
Bordiyu toptolsa yo'qolur elat,  
Ey mening o'zbekim, e'zozla tiling,  
Shunda yashaguvchi elating ,eling.

Ovoz: Til, xalk, ona, millat... Ularga muhabbat har bir kishi qalbida jaranglaydi. Uning ramziy jilolari shoir dilida o'zgacha mohiyat kasb etishi haq. Talabalar: G. Abdusalomov, N.Asadova, F.Komilovlarning she'rlarini tinglagach ,shunga amin bo'lasiz.

(Talabalarining chiqishlari )

Ovoz: Maqsad odatda, til orqali anglashilar ekan ,raqs tili esa imo- ishora bilan ma'no mazmun baxsh etadi.

E'tiboringizga havola etilayotgan raqsnı Xurshidaxon Saidova ijro etadi.

O'zga millat vakillarining o'zbek tiliga bo'lgan mehri kishining bahri dilini ochadi .Endi sahnaga institutimizda ta'lim olayotgan rus guruhi talabalarini taklif etamiz.

(Rusiyazabon talabalarining chiqishlari.)

Ovoz: Qo'shiqqa mezon bo'lgan so'z va soz uyg'unligi, til va dilning birligidan nishondir .So'zlar soz ohangi ovoz jilosi bilan qalblarga yetib boradi. Ana shunday niyat bilan san'atga ilk qadamini tashlayotgan Shukrullo Qambarovning ijrosida 'Marg'ilonda Kumushni ko'rdim' deb nomlangan qo'shiqni qabul aylang. Raqsida Dilbar...

Ovoz: Tilimiz, dilimiz, o'zligimiz so'zligimizdir. O'zimizga e'tiborni kanda qilmaymiz. Ko'zgu oldida yarim soat o'zimizga oro beramizu ,kundalik muomalimizda esa so'zimizga e'tiborimiz kam .Bu holatimizga hajviy nazar:

(“Fayz” guruhining chiqishi )

Ovoz: Mungli qushim,sayrab –sayrab kel anglat ,

Kimlar erur turk tilini sotguchi?  
Bulbul kabi sayrab turgan bu tilni ,  
Uyalmayin bu ulkadan otguchi?  
Bolday totli jonday aziz turkchani  
Tushunmayin xurlab- xurlab yotguchi?  
Mungli qushim, ularni quy ,sen sayra.  
Turk tilining dongin chiqar ko'klarga.  
Kuy ularni ular yo'ldan ozsinlar,  
El ichida bush bugizlik sotsinlar.

( Boshlovchilar chiqib kelishadi.)

Bisyor bo'lsa agar bol ham beqadr,  
Takror aytilganda rangsizdir kalom.  
Bu yorug' olamda Vatan bittadir,  
Bittadir dunyoda Ona degan nom

#### 2- boshlovchi:

“Ona” so'zi hamma tushunchalarga ham ilova qilinavermaydi. Uning ikkita tushunchaga qo'shib aytilishi bejiz emas. Biri kindik qon to'kilgan – Ona yurt bo'lsa, ikkinchisi ona tildir. Demak, til himoyasi vatan himoyasidir. Umidli san'atkor Nodirabegim ‘Vatan seni asrayman’ nomli qo'shigini ijro etadi.

(qo'shiq ijro etiladi.)

#### 1-boshlovchi:

Ona tilim sen borsan shaksiz,  
Bulbul kuyin she'rga solaman.  
Sen yo'qolgan kuning shubhasiz,  
Men ham to'ti bo'lib qolaman

**2-boshlovchi:** Til bayramiga bag'ishlangan adabiy- ma'rifiy dasturimizni yakunlar ekanmiz, har birimizga ona tilga bo'lgan mehrimiz boqiyiligini tilab qolamiz. Omon bo'linglar.

**Badiiy rahbar: Sobira Jo'raeva**  
O'zbekiston Respublikasining ‘Davlat tili to'g'risidagi Qonunning qabul qilinganiga 16 yil to'lishi munosabati bilan o'tkaziladigan

**“Til – millat ko'zgusi” nomli adabiy –ma'rifiy dasturning**

## SCENARIYSI

#### 1-boshlovchi:

Sen dildagi orzularga qanot berding,  
Har mushkulu, hayollarga najot berding,  
Yashash uchun hech tugamas hayot berding,  
Tillar ichra o'zing buyuk zabonimsan,  
Ona tilim mening ikki jahonimsan.

#### 2-boshlovchi:

Oh, ona tilginam muqaddas tilim,  
Bir og'iz so'zingga jonim tasadduq.  
Bunchalar shirinsan, bunchalar so'lim  
Bormikan ajib til sendanda ortiq.

#### 1-boshlovchi:

Til - Bu bir ummon! Aslida ko'ringan bu ummonning ichki dunyosi g'alayonlarga, to'fonlarga boydir.

#### 2-boshlovchi:

Assalomu alaykum, bugungi til bayramiga tashrif buyurgan aziz ustozlar!

#### 1-boshlovchi:

Assalomu alaykum, yuksak salohiyat sari intilayotgan orzumand talabalar.

## 2-boshlovchi:

Mana bugun tarixiy unutilmas kun, ya'ni til bayrami. Til millatning asosiy belgilaridan biri. Ezgu fazilatlar, yuksak tuyg'ular manbai. Ona tilini sevimli vatanparvarlik belgisi, ajdodlar ruhiga hurmat ramzidir.

## 1-boshlovchi:

Dunyoda xalqlar ko'p. Lekin har bir xalq, avvalo o'z tili, milliy urf-odat va an'analari, o'ziga xos turmush tarzi bilan ajralib turadi. Binobarin, xalqning, millatning o'zligini namoish qilishda tilning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

## 2-boshlovchi:

Ona tili millatning taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shib kelmoqda. Chunki, bu til bo'lmasa Mahmud Qoshg'ariyning 'Devoni-lugatit turk' kitobi, Yusuf Xos Xojibning 'Qutadg'u bilig' Ahmad Yassaviyning hikmatlari, Alisher Navoiyning 'Hamsa'si, Boburning 'Boburnoma'si Cho'lpon va A.Oripovlarning o'tli she'riyati yaramagan bo'lur edi. Shuning uchun ona tilimiz –millatimiz ko'zgusi, millatimiz ruhining timsoliga aylanib ketgan.

(Musiqiy ko'rinish)

## 1-boshlovchi:

Inson aqliy faoliyatining eng oliy mahsullari, tafakkur mevalari til va nutq orqali yuzaga chiqadi. To'g'rimi? (2-boshlovchiga qarab)

## 2-boshlovchi:

Qadimiy islomiy manbalarimizda aytilishicha, bani asharning yaratuvchisi Tangri Taoloning bir og'iz 'bo'l' ekan so'zi bilan olam yaratgan ekan. Shuning uchun so'zga e'tiqod, so'zga berilgan ta'rif, tavsiflar so'zning tarixiy qimmatiga aytilgan sharaflar cheksiz.

Donalar so'zlar (Sahnaga A.Navoiy, M.Bebudiy va A.Qodiriy chiqib keladi)

## A.Navoiy:

So'z durki, nishon berur o'lukka jondin,

So'z durki, berur jong'a xabar jonondin.

Insonni so'z ayladi judo hayvondin

Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin.

## A.Qodiriy:

Hamma til ham qo'shni tillardan qarz oladi. Busiz iloji yo'q. Asar faqat o'z tilidagina yozilsa, shirasiz, quruq chiqadi. Yozuvchi o'z xalqining tilini o'rganishi shart va bir nechta tillarni, ayniksa, qo'shnisi tilini bilishi fazilat. Shundagina tili boyiydi va asari jilolanadi.

## Behbudiy:

Biz-Turkistoniy-larg'a turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdir. Chunki davr taqozosi shuni talab qiladi.

**1-boshlovchi:** Til inson aqliy faoliyatining eng asosiy vositasidir. Insonni butun hayvonot olamidan ajratib turgan koinot sarvari va gultojiga aylantirgan omil ham tildir.

**2-boshlovchi:** Ona tilini puxta bilish, u bilan g'urur –iftixor qilish milliy ma'naviyat, o'zlik ifodasi bo'lsa, boshqa tillarni bilishga intilish madaniyat belgisi, qo'shimcha bilim quroliga ega bo'lishdir.

Sahna ko'rinishi:

Husayn Boyqaro uzoqda ishlar bilan mashg'ul ekan. Saroyda malika og'ir betob yotgan ekan. Malika kunlarning birida hayotdan ko'z yumibdi, ammo podshohga o'lim xabarini etkazishga hech kim jur'at eta olmabdi. Shunda saroy ayonlari so'z sarkadasi Navoiyga murojaat qilishibdi: 'Shohga shum xabarni etkazgan kishi jazoga mahkum bo'ladi. Mushkulni faqat sizning tadbirkorligingiz, suxandonligingiz oson qilishi mumkin', deb aytishibdi. Shunda Navoiy bir satr she'r yozib beribdi. Uni chopar orqali Husayn Boyqaroga etkazishibdi.

Podshoh o'qibdi:

Sarvigulning soyasida suldi gul, netmoq kerak ?

Husayn Boyqaro darhol misraning mazmunini tushinibdi. Hech bir talvasaga tushmasdan vazminlik bilan she'riy savolga she'riy javob yozibdi:

Sarvdin tobut yasab, guldin kafan bichmoq kerak

Saroy ahli chopar keltirgan xabardan xushnud bo'lib, so'zning qudratiga qoyil qolishibdi, dafn marosimiga kirishishibdi.

( Sahnaga boshlovchi chiqadi)

Aziz ustoz va o'quvchilar. Shuning bilan til bayramiga bag'ishlangan anjumanimiz o'z nihoyasiga yetdi. Har birimizga ona tilimizga muhabbatli bo'lishni tilab, xayrlashamiz.

Xayr, omon bo'ling.

## OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM MUASSASALARIDA O'TKAZILADIGAN 'ONA TILIM - JONU DILIM' MAVZUIDAGI ADABIY-BADIIY TADBIR

### SCENARIYSI

#### Sahna

Ovoz: Til-har bir xalq va millatning milliy o'zligini namoyon qilishda muhim vositadir. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga avvalo ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi... Ona tili-bu millat ruhidir. O'z tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar! Shaxs ma'naviy kamolotining zarur shartlaridan biri o'z ona tilini bilishdir.

Sahnaga boshlovchi chiqib keladi.

Assalomu alaykum aziz ustozlar, hurmatli o'quvchilar. 'Ona tilim -jonu dilim' nomli tadbirimizga xush kelibsiz.

Ma'lumki, insonlar o'rtasidagi asosiy vosita, ko'prik bu tildir. Tilni asrash o'zlikni, millatni asrash bilan barobardir. Bugun ona tilimizga davlat tili maqomi berilganiga ham 16 yil to'ldi. Shu munosabat bilan uyushtirilgan ushbu adabiy-badiiy anjumanimizni ochiq deb e'lon qilaman.

Ovoz: Besh asrkim, nazmiy saroyini

Titratadi zanjirband bir sher.

Temur tig'i etmagan joyni

Qalam bilan oldi Alisher.

Sahnaga Alisher Navoiy obrazidagi qahramon 'Cho'li iroq' kuyi ohanggida asta odimlab chiqib keladi va davraga ta'zim qiladi;

Olibmen taxti farmonimg'a oson,

Cherik chekmay Xitodin to Xuroson.

Xuroson demakiM Sherozu Tabriz,

Ki kilmindur koyi gilkim shakarrez.???

Turk nazmida chu men tortib alam

Ayladim ul mamlakatni yakqalam.

(Shu tariqa Navoiy yana ta'zim qilib asta sahnadan chiqadi.

Sahnaga boshlovchi keladi)

Ona tilim-onajonim tili bu

Beshikdanoq singgan jonu quloqqa

Elu yurtim, xonumonim tili bu

Qadimlikda o'xshar ona tuproqqa

-Ona tilining umri boqiyliigi har bir zamonda ham kelajak avlodlarning unga bo'lgan ehtiromi va e'tiboridir. Bugungi zamondosh ijodkorlarimiz tilimiz xususida nimalar deydi .Keling, shoirlarimiz so'zini o'quvchilarimiz tomonidan tinglasak.

(Sahnaga bir guruh o'quvchilar chiqib, shoirlarning til xaqidagi she'rlaridan yod aytishadi)

Sahnaga yana boshlovchi chiqib:

\_ yaqinda bir guruh o'quvchilarimiz qadim va navqiron Samarqand shahriga ziyoratga borishdi. Buning til xaqidagi tadbiriga nima taalluqli joyi bor dersiz. Keling buni o'quvchilarimizning o'zidan so'rasak.

Sahnada Samarqanddagi Registon maydoni manzarasi paydo bo'ladi. Davraga zamonaviy usulda kiyinib olgan o'quvchilar chiqishib atrofga xayrat va o'ta qiziquvchanlik bilan boqishib qadimiy obidalar devorlarini ushlab ko'rishadi.

Shunda o'quvchilar maydondan o'tib borayotgan yo'lovchidan shosha-pisha:

- Amaki, bo't qat, a?

-Ayting bo't qat?-deya savol yog'dirishadi. Yo'lovchi esa o'quvchilarga bir zum xayron bo'lib boqib:

-Anglashimcha, bu joy qayer deb so'ramoqchisiz, shundaymi?

Yo'lovchi tasdiq ishorasini olgach o'quvchilarga kulib:

Buyer Registon maydoni bo'ladi, bolalarim. Sizlarga nasihatim, qayerga borsangiz ham faqat o'zbek adabiy tilida gapiring. Shunda o'zingizni ham o'zgalarni ham qiynamaysiz, - deb javob beradi.

Sahnaga boshlovchi chiqadi:

-Aziz ustozlar va bilimga tashna o'quvchilar. Shuning bilan bugungi badiiy kechamizni yakunlab barchangizga ijodiy barkamollik tilaymiz.

El netib topqay menikim,

Men o'zimni topmasam.

## MUNDARIJA

|                                                                    |           |
|--------------------------------------------------------------------|-----------|
| Kirish .....                                                       | 3         |
| <b>1-BOB. O'zbek adiblarining ona tili haqidagi she'rlari.....</b> | <b>7</b>  |
| 1. Alisher Navoiy TIL .....                                        | 7         |
| 2. Avaz O'tar TIL .....                                            | 8         |
| 3. Muazzamxon. Na til birlan bayon aytay .....                     | 9         |
| 4. Elbek TIL.....                                                  | 10        |
| 5. Rauf Parfi Cho'lpon .....                                       | 11        |
| 6. Alixontura Sog'uniy TIL HAQIDA .....                            | 12        |
| 7. Rasul Hamzatov ONA TILIM .....                                  | 13        |
| 8. Mirtemir ONA TILIM.....                                         | 15        |
| 9. Abdulla Oripov ONA TILIMGA .....                                | 18        |
| 10. Erkin Vohidov ONA TILIM O'LMAYDI .....                         | 19        |
| 11. Muhammad Yusuf KECHIR MENI ONA TILIM .....                     | 22        |
| 12. Xudoyberdieva 'ESKI O'ZBEK TILI' GA YOZUV .....                | 24        |
| 13. Xurshud Davron ONA TILIM.....                                  | 27        |
| 14. Jumaniyoz Jabborov ONA TILIMDA .....                           | 30        |
| 15. Chustiy TILINGDAN.....                                         | 31        |
| 16. Azim Suyun UNUTILGAN TILLAR .....                              | 34        |
| 17. Muhammad Raxmon PANTOMEMA UCHUN SYUJET ..                      | 36        |
| 18. Usmon Azim .BITIK TOSHLAR ORZUSI .....                         | 38        |
| 19. Hasan Nuriy ONA TILI .....                                     | 39        |
| 20. Barot Isroil MULOQOTGA CHORLAR O'ZBEK TILI ..                  | 41        |
| 21. Sulaymon Rustam TILIMGA TEGMA.....                             | 42        |
| 22. Mukarrama Murodova ONA TILI.....                               | 43        |
| 23. Dilorom Qo'zijon Qizi Uzro YURT TILIM –YURAK TILIM .....       | 44        |
| 24. Obid Rasul ONA TILIM .....                                     | 46        |
| 25. Haydar To'raev ONA TILIM .....                                 | 49        |
| 26. Mahmud Toirov ONA TILIM .....                                  | 50        |
| 27. Rustam Musurmon SHOIRNING QO'SHIG'I .....                      | 52        |
| <b>2-BOB. O'ZBEK ADIBLARI ONA TILI HAQIDA .....</b>                | <b>54</b> |
| <b>3-BOB. TIL BAYRAMLARI UCHUN SCENARIYLAR.....</b>                | <b>60</b> |

Til –millatning ruhi  
Til- millat ko'zgusi  
Ona tilim –jonu dilim

Qo'llanmadagi hatoliklarga quyidagi tuzatishlar kiritildi:

Junaniyoz (30 bet).

Qodiriy (56 bet).

Senariy (60, 65, 69 betlar).

Abduqalhor (58, 59 betlar).

Bunday (36 bet).

---

Terishga berildi 13.06.2005.

Bosishga ruxsat etildi 01.05.2006. Qog'oz bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>.

Tayms garnitura.

Shartli bosma 4,75 t. Ofset bosma. Ofset qog'oz.

200 nusxa. 44-buyurtma.

O'zR FAAK bosmaxonasida chop etildi.

I. Mo'minov ko'chasi 13-uy.